

O'zbekiston – mening Vatanim



O'zbek musiqasi ilqlik, yurtga nisbatan mehr va faxrni o'zida mujassam etgan. Qo'shiqlarda tarixga, tabiatga va insonlarga bo'lgan hurmat kuylanadi. Bugun biz Vatanni asrab-avaylash va uni sevish qanchalik muhimligini madh etuvchi "Obod Vatanim" qo'shig'ini tinglab, yod olamiz.



Obod Vatanim

*Jumaniyoz Jabborov so'zi,
Shermat Yormatov musiqasi*

1

Go'zal diyorim,
G'azal diyorim.
Asal diyorim,
Zarhal diyorim.
Yog'dumiz o'zing,
Orzumiz o'zing.
Ko'zgumiz o'zing,
Ko'nglimiz o'zing.

NAQAROT (2 marta):

Vatanimizsan,
Chamanimizsan.
Naqadar go'zal,
Obod Vatanim –
O'zbekistonim!

2

Moviy samoli,
Mayin saboli.
Quvnoq sadoli,
Baxt-u safoli.
Oltin belanchak,
Oydin kelajak.
Go'zal kelinchak,
Bag'ri gul-chechak.

**NAQAROT (2 marta)**

3

Go'zal diyorum,
G'azal diyorum.
Asal diyorum,
Zarhal diyorum.
Biz gullaringmiz,
Bulbullaringmiz.
Gul-g'unchalarmiz,
Bulbulchalarmiz.

**NAQAROT (2 marta)**

- Qo'shiqda diyoringizga qanday ta'rif berilgan?
- **Oltin belanchak** deganda nimani tushunasiz?
- Vatan haqida yana qanday qo'shiqlarni bilasiz?
- Ushbu qo'shiq odamlarni qanday qilib birlashtiradi?



**Qo'shiqni yod oling va uni
do'stlaringizga kuylab bering.**

